

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 534 sahifa.
2025-yil, 24-oktyabr,*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odambayev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEKANIZMLARI	392
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Хақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Аброрбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ MPI	426
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
Xomidov Xojakbar Adxamovich	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	449
Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna	
O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHI YO'LLARI.....	454
Suleymanova Shoir Alavxanovna	
MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O'RNI	459
Alimova Dilfuzaxon Rustam qizi	
MEHNAT BOZORINI OPTIMALLASHTIRISHNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	464
Botirova Sarvinoz Bobir qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	469
Qurboniyazov Shaxzodbek Karimovich	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH USULLARINING MANBALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	474
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING MOHIYATI VA TURLARI.....	482
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
FISKAL BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	491
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
ИНДЕКС ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ МОНИТОРИНГА УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ	496
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
BANK MAJBURIYATLARI VA AKTIVLARINING VAQTINCHALIK NOMUTANOSIBLIK LARI RISKINI KAMAYTIRISH	502
Ibrohimov D.M.	
O'ZBEKISTON RAQAMLI PLATFORMALARI FAOLIYATIDA RAQOBAT SIYOSATINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	507
Saparov Islom O'lmasovich	
RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING YONDASHUVLARINING QISHLOQ XO'JALIGIGA TATBIQI	514
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI KAPITALI TARKIBIDA DAROMAD MANBALARINING ULUSHI VA KAPITALLASHUV JARAYONIDAGI O'RNI	520
Tursunov Mustafo Mirzayevich	
AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA INSTITUSIONAL HAMKORLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI TAHLILI	524
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI	528
Bobojonova Sevara Baxrombek qizi	



O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Bobojonova Sevara Baxrombek qizi

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqola O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qiladi. Tadqiqotda 2019–2025-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar asosida raqamli xizmatlarning bank rentabelligiga, operatsion xarajatlarga hamda moliyaviy inklyuziyaga ko'rsatgan ta'siri o'rganilgan. Ishda Markaziy bank, VISA, UNDP, KPMG, World Bank va boshqa xalqaro tashkilotlarning real ko'rsatkichlaridan foydalanilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish bank sektorida xizmatlar sifati, tezligi va shaffofligini oshirib, foydalilik darajasini kuchaytirgan hamda iqtisodiyotning umumiy samaradorligini yaxshilagan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, bank tizimi, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy inklyuziya, fintech, raqamli to'lovlar, O'zbekiston.

Abstract. This scientific article examines the economic efficiency of digital transformation processes in the banking system of Uzbekistan. Based on statistical data from 2019 to 2025, the study analyzes the impact of digital services on bank profitability, operational costs, and financial inclusion. The research uses real indicators from the Central Bank, VISA, UNDP, KPMG, the World Bank, and other sources. The results show that the implementation of digital technologies in the banking sector has improved the quality, speed, and transparency of services, increased profitability, and enhanced the overall efficiency of the economy.

Keywords: digital transformation, banking system, economic efficiency, financial inclusion, fintech, digital payments, Uzbekistan.

Аннотация. Данная научная статья анализирует экономическую эффективность процессов цифровой трансформации в банковской системе Узбекистана. В исследовании на основе статистических данных за 2019–2025 годы изучено влияние цифровых услуг на рентабельность банков, операционные расходы и уровень финансовой инклюзии. В работе использованы реальные показатели Центрального банка, VISA, UNDP, KPMG, Всемирного банка и других международных организаций. Результаты анализа показали, что внедрение цифровых технологий повысило качество, скорость и прозрачность банковских услуг, усилило уровень прибыльности и улучшило общую эффективность экономики.

Ключевые слова: цифровая трансформация, банковская система, экономическая эффективность, финансовая инклюзия, финтех, цифровые платежи, Узбекистан.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiya davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2020-yilda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" konsepsiyasi mamlakatning raqamli iqtisodiyotini shakllantirish, davlat xizmatlari, moliya va bank tizimlarida axborot texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, shaffoflik va moliyaviy inklyuziyani oshirishni maqsad qilgan muhim dasturiy hujjat hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, ayniqsa bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon nafaqat mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilaydi va qulaylikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sish, investitsion muhitni yaxshilash hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Raqamli xizmatlar orqali bank operatsiyalari tezlashmoqda, mijozlar bazasi kengaymoqda, naqd pul muomalasi kamaymoqda va natijada iqtisodiy aylanish tezligi ortmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yilgi yillik hisobotiga ko'ra, mamlakatda raqamli to'lovlar hajmi 2019-yildagi 25 trillion so'mdan 2024-yilda 160 trillion so'mgacha oshgan, ya'ni 6,4 barobar



o'sish qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlar jadal rivojlanayotganini hamda bank tizimida innovatsion yechimlarga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiya va bank tizimining o'zaro bog'liqligi ko'plab xalqaro tadqiqotlarda keng yoritilgan. Tadqiqotchilar raqamli texnologiyalar iqtisodiy tizimlarning samaradorligini oshirishda va moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilashda muhim omil ekanini ta'kidlaydilar.

Brynjolfsson va McAfee (2017)¹ o'z izlanishlarida raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi, operatsion xarajatlarni kamaytirishi va mehnat unumdorligini sezilarli darajada yaxshilashini asoslab bergan. Ularning fikricha, raqamli iqtisodiyot o'sishning yangi bosqichiga o'tishni ta'minlaydi.

Jahon banki (World Bank, 2023)² ma'lumotlariga ko'ra, raqamli moliyaviy xizmatlar ilgari moliyaviy tizimdan chetda qolgan aholining 23 foizini moliyaviy xizmatlardan foydalanishga jalb qilgan. Bu raqamli yechimlarning ijtimoiy-iqtisodiy inklyuziyani oshirishdagi rolini ko'rsatadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (UNDP, 2025)³ hisobotida esa O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti mamlakat YalMning 2,1 foizini tashkil etishi qayd etilgan. Bu ko'rsatkich Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng yuqori sur'atlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

KPMG (2025)⁴ tahlillarida O'zbekiston banklari raqamli transformatsiya jarayonida daromad manbalarini diversifikatsiya qilgani va operatsion xarajatlarni o'rtacha 28–35 foizgacha qisqartirgani ta'kidlangan. Bu esa raqamli texnologiyalar moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, VISA (2024)⁵ ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida POS-terminal va QR-to'lov nuqtalari soni 4 barobar oshgan. Bu esa aholining elektron to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchi ortib, to'lov infratuzilmasining kengayganidan dalolat beradi.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida Abdullayev A. (2023)⁶ va Raxmonov B. (2024)⁷ raqamli bank xizmatlarining rentabellik va risk boshqaruvi tizimiga ijobiy ta'sirini tahlil qilgan. Ularning fikricha, raqamlashtirish bank faoliyatini samarali boshqarish va mijozlar ehtiyojlariga moslashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli transformatsiyaning bank tizimi faoliyatiga ta'sirini aniqlash maqsadida miqdoriy va sifatli tahlil uslublari qo'llanildi. Tadqiqotda foydalanilgan metodologiya ma'lumotlarning ishonchiligidini ta'minlash hamda raqamli xizmatlarning bank rentabelligiga ta'sirini har tomonlama tahlil qilishga yo'naltirilgan.

Statistik tahlil — O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2019–2025-yillardagi rasmiy hisobotlari, World Bank Data bazasi va VISA kompaniyasi statistik ma'lumotlariga asoslanib amalga oshirildi. Ushbu ma'lumotlar asosida raqamli moliyaviy xizmatlar hajmining o'sish dinamikasi aniqlangan.

Trend tahlili — 5 yillik davr mobaynida raqamli xizmatlar hajmining o'sish sur'atlari va ularning umumiy moliyaviy tizimdagi ulushi tahlil qilindi. Bu orqali raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari aniqlanib, o'zgarishlarning asosiy omillari belgilandi.

Qiyosiy tahlil — raqamli xizmatlarni faol joriy etgan banklar (Ipoteka bank, Asaka bank, Agrobank, Kapitalbank) va asosan an'anaviy modelda ishlayotgan banklar faoliyati solishtirildi. Ushbu usul raqamli yechimlarning bank samaradorligiga real ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Empirik tahlil — banklarning raqamli texnologiyalarni joriy etishi bilan rentabellik ko'rsatkichlari (ROA — Return on Assets va ROE — Return on Equity) o'rtasidagi o'zgarishlar o'rganildi. Bu orqali raqamlashtirish darajasi va moliyaviy natijalar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi.

Tadqiqotda foydalanilgan asosiy manbalar: CBU (2024), UNDP (2025), World Bank (2024), VISA (2024) va KPMG (2025) hisobotlari bo'lib, ular xalqaro hamda milliy miqyosda ishonchli ma'lumot manbalari sifatida tanlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari O'zbekiston bank tizimida raqamli xizmatlarning so'nggi yillarda jadal rivojlanayotganini ko'rsatmoqda. Quyidagi jadvalda 2019–2024-yillar oralig'idagi asosiy raqamli ko'rsatkichlar dinamikasi keltirilgan (1-jadval).

- 1 Brynjolfsson E., McAfee A. *Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future*. — New York: W.W. Norton & Company, 2017.
- 2 World Bank. *Digital Financial Inclusion Report 2023*. — Washington, D.C., 2023.
- 3 UNDP. *Digital Economy in Uzbekistan 2025 Report*. — New York, 2025.
- 4 KPMG. *Uzbekistan Banking Transformation Review 2025*. — Tashkent, 2025.
- 5 VISA. *Payment Digitization Insights 2024*. — Regional Report, 2024.
- 6 Abdullayev A. Raqamli xizmatlar va ularning bank rentabelligiga ta'siri. — TDIU ilmiy jurnali, 2023.
- 7 Raxmonov B. Bank tizimida raqamli risk boshqaruvi mexanizmlari. — TMI ilmiy to'plami, 2024.

1-jadval. O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya ko'rsatkichlarining dinamikasi (2019–2024-yillar)

Ko'rsatkichlar	2019	2021	2023	2024
Raqamli to'lovlar hajmi (trln so'mda)	25	68	124	160
Masofaviy xizmat foydalanuvchilari (mln kishi)	9.2	18.4	27.5	32.1
Mobil banking ilovalari foydalanuvchilari (%)	22%	44%	63%	78%
POS terminallar soni (ming dona)	108	210	389	434
Bank kartalari soni (mln dona)	14	22	31	34

Manba: CBU (2024), World Bank (2024), VISA (2024), KPMG (2025) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, raqamli to'lovlar hajmi 2019-yildagi 25 trillion so'mdan 2024-yilda 160 trillion so'mga yetib, 6,4 barobar o'sish kuzatilgan. Bu o'sish bank sektorida raqamli to'lov tizimlariga bo'lgan talabning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni 2019-yildan 2024-yilgacha qariyb 3,5 barobar oshgan. Bu esa aholining raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish madaniyati shakllanayotganini bildiradi.

Mobil banking ilovalari foydalanuvchilari ulushi 5 yil ichida 22 foizdan 78 foizga oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich sohada mobil ilovalar asosiy xizmat kanallaridan biriga aylanganini ko'rsatadi.

POS terminallar sonining 4 barobar ko'payishi va bank kartalari sonining 14 million donadan 34 million donagacha o'sishi esa to'lov infratuzilmasining kengayishini hamda naqd pulsiz to'lov tizimining shakllanayotganini isbotlaydi.

Umuman olganda, tahlil natijalari raqamli xizmatlar hajmining barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanini, bu jarayon iqtisodiyotda moliyaviy inklyuziya va raqamli transformatsiya siyosatini qo'llab-quvvatlayotganini ko'rsatadi.


O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (CBU) ma'lumotlariga ko'ra, tijorat banklarining jami aktivlari 2023-yil yakunida 621,9 trillion so'mni tashkil etgan bo'lib, bu 2019-yilga nisbatan 2,3 barobar ko'pdir. Shu bilan birga, banklarning sof foydasi o'rtacha 18–20 foizga oshgani kuzatilgan.

Raqamli xizmatlar joriy etilishi natijasida banklarning operatsion xarajatlari sezilarli darajada kamaygan. Masalan, Asaka bankda 2024-yilda xarajatlar 31 foizga qisqargan, Kapitalbankda esa mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar ulushi 82 foizga yetgan. Ushbu ma'lumotlar raqamli transformatsiya banklar uchun nafaqat xizmat qulayligini oshirganini, balki iqtisodiy samaradorlikni ham yaxshilaganini ko'rsatadi.

Raqamli transformatsiyaning yana bir muhim natijasi — moliyaviy inklyuziyaning sezilarli kengayishidir. 2016-yilda aholining atigi 23 foizi bank xizmatlaridan foydalangan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 67 foizga yetgan.

Mobil banking foydalanuvchilari soni 2019–2024-yillar oralig'ida 3,5 barobar oshgani qayd etilgan. Bu aholining raqamli moliyaviy yechimlarga bo'lgan ishonchi va ulardan foydalanish ko'lamining ortib borayotganidan dalolat beradi [5].

Bundan tashqari, Datareportal (2025) ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 32,7 million kishiga yetgan. Shu bilan birga, ResearchGate (2024) hisobotida 2024-yilda har 100 nafar aholiga 84 ta bank kartasi to'g'ri kelgani qayd etilgan (1-rasm).



1-rasm. Raqamli to'lovlar hajmining o'sish dinamikasi (2019–2024)



Raqamli to'lovlar hajmi O'zbekiston bank tizimida eng tez o'sayotgan ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. 2019-yilda jami raqamli to'lovlar hajmi 25 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil yakunida bu ko'rsatkich 160 trillion so'mga yetgan. Bu esa so'nggi besh yilda 6 barobar o'sish qayd etilganini bildiradi. Raqamli to'lovlar hajmining yillik o'sish sur'ati o'rtacha +42 foiz atrofida bo'lib, bu ko'rsatkich raqamli xizmatlarning mamlakat moliyaviy tizimida tobora markaziy o'rin egallayotganini ko'rsatadi.

Grafikdan ko'rinadiki, 2020-yildan boshlab elektron to'lovlar infratuzilmasi kengaygani, POS-terminallar va mobil ilovalar sonining ortgani, shuningdek, pandemiya davrida onlayn to'lovlarga bo'lgan talabning oshishi o'sishning asosiy omillari bo'lgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayoni iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Analitik tahlil asosida quyidagi asosiy jihatlar aniqlangan:

Operatsion samaradorlik. Raqamli platformalarga o'tgan banklarda xizmat ko'rsatish tezligi ortgan, operatsion xarajatlar esa kamaygan. Avtomatlashtirilgan to'lov tizimlari inson xatosini sezilarli darajada kamaytirgan, natijada xizmat xarajatlari o'rtacha 25–30 foizgacha qisqargan. Bu holat raqamli texnologiyalarni joriy etish banklar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda asosiy omil bo'layotganini ko'rsatadi.

Mijoz qamrovi va daromadlar. Mobil banking ilovalari foydalanuvchilari sonining ortishi natijasida mijozlar sodiqligi va xizmatlardan foydalanish chastotasi oshgan. Tranzaksiyalar sonining ko'payishi banklarga qo'shimcha komissiya daromadlarini ta'minlab, ularning umumiy daromad strukturasi raqamli xizmatlar ulushini kengaytirgan. Bu esa mijozlar bilan o'zaro aloqani mustahkamlash hamda uzoq muddatli hamkorlikni rag'batlantirishga xizmat qilmoqda.

Raqobatbardoshlik. Kapitalbank, TBC Uzbekistan, Ipak Yo'li va Aloqabank singari banklar so'nggi yillarda yangi fintech yechimlarini joriy etish orqali ichki va xalqaro raqobat sharoitida o'z mavqeini mustahkamlashga erishgan. Mazkur banklar raqamli xizmatlar orqali tezkor kreditlash, onlayn depozitlar va to'lov yechimlari kabi innovatsion yo'nalishlarni kengaytirgan. Shu tariqa, raqamli texnologiyalar banklar raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy strategik vositaga aylangan.

Kiberxavfsizlik va mavjud muammolar. Raqamli o'sish bilan bir qatorda, yangi xavf omillari ham paydo bo'lmoqda. 2023-yilda 1,2 mingdan ortiq fishing holatlari qayd etilgan bo'lib, bu kiberxavfsizlik masalalariga alohida e'tibor zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, IT-mutaxassislar yetishmasligi va raqamli savodxonlik darajasining pastligi, ayniqsa 40 yoshdan yuqori aholida, raqamli xizmatlardan foydalanishni cheklovchi omillar sifatida qayd etilgan.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun banklar tomonidan xodimlar malakasini oshirish, mijozlarga mo'ljallangan raqamli savodxonlik dasturlarini yo'lga qo'yish hamda kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayoni iqtisodiy samaradorlikning yangi bosqichini boshlab berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish bank faoliyatining barcha yo'nalishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2025-yil holatiga ko'ra:

- Tijorat banklarining rentabellik ko'rsatkichlari (ROA va ROE) o'rtacha 18–22 foizga oshgan.
- Raqamli to'lovlar ulushi umumiy to'lov hajmining 70 foizini tashkil etmoqda.
- Moliyaviy inklyuziya darajasi 65 foizdan oshgan.
- Xizmatlar sifati va shaffoflik darajasi oshgani tufayli korrupsiya xavfi kamaygan.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya bank tizimida xizmat ko'rsatish tezligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, mijozlar bazasini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omilga aylandi.

Kelgusida raqamli rivojlanishni chuqurlashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

Hududiy raqamli infratuzilmani kuchaytirish — chekka hududlarda internet qamrovini kengaytirish orqali moliyaviy xizmatlarga teng imkoniyat yaratish.

Kiberxavfsizlikni mustahkamlash — bank ma'lumotlari himoyasini kuchaytirish hamda phishing va firibgarlik holatlarining oldini olish.

Raqamli savodxonlikni oshirish — bank xodimlari va aholiga mo'ljallangan o'quv dasturlarini joriy etish.

Sun'iy intellekt, big data va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish — bank faoliyatini avtomatlashtirish va tahliliy qarorlarni takomillashtirish.

Raqamli iqtisodiy samaradorlik indikatorlarini ishlab chiqish — raqamli yechimlarning iqtisodiyotga ta'sirini baholash uchun yagona monitoring tizimini yaratish.

Ushbu yo'nalishlarni izchil amalga oshirish O'zbekistonning moliyaviy tizimini yanada raqobatbardosh, innovatsion va barqaror rivojlanishga yo'naltiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). *Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future*. New York: W. W. Norton & Company.
2. World Bank. (2023). *Financial Inclusion in Central Asia: Trends and Prospects*. Washington, D.C.
3. UNDP. (2025). *Digital Economy in Uzbekistan: Country Report*. New York.
4. VISA. (2024). *Insights from Uzbekistan: The Future of Digital Payments*. Regional Report.
5. KPMG. (2025). *Global Digital Banking Trends & Insights*. Tashkent Office.
6. CBU. (2024). *Payment Systems Statistical Bulletin*. Central Bank of the Republic of Uzbekistan.
7. Abdullayev, A. (2023). *Raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri*. TDIU ilmiy jurnali.
8. Raxmonov, B. (2024). *O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya*. TMI ilmiy to'plami.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100